

“QATAG’ON QURBONLARI XOTIRASI – ADOLAT VA OZODLIK RAMZI” (URUSH VA MEHNAT QAHRAMONI BOBOMUROD OMONOVNING PORLOQ XOTIRASIGA BAG’ISHLANADI.)

Zuxra Xolikova

O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, san’atshunos

Annotatsiya: *Ushbu maqolada totalitar tuzum davrida yuz bergan siyosiy qatag‘onlar, ularning xalq taqdiriga ko‘rsatgan ta’siri hamda qatag‘on qurbonlarining porloq xotirasini abadiylashtirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, urush va mehnat qahramoni Bobomurod Omonovning hayoti va faoliyati misolida millat fidoyilarining mardlik va sabr-toqati tahlil qilinadi. Qatag‘on qurbonlari xotirasi adolat, ozodlik va milliy g‘ururni yuksaltirishda muhim o‘rin tutishi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Totalitar tuzum, siyosiy qatag‘on, qatag‘on qurbonlari, adolat, ozodlik, xotira, urush qahramoni, mehnat qahramoni, fidoyilik, Bobomurod Omonov.*

Abstract: *This article discusses the political repressions that occurred during the totalitarian regime, their impact on the fate of the people, and the issues of perpetuating the bright memory of the victims of repression. Also, the courage and patience of the national martyrs are analyzed using the example of the life and work of the hero of war and labor Bobomurod Omonov. It is emphasized that the memory of the victims of repression plays an important role in promoting justice, freedom, and national pride.*

Keywords: *Totalitarian regime, political repression, victims of repression, justice, freedom, memory, war hero, hero of labor, sacrifice, Bobomurod Omonov.*

“Adolat yo‘lida qurbon bo‘lganlar – millat faxri”

KIRISH

Insoniyat tarixida adolat va ozodlik yo‘lida kurashgan fidoyilar nomi hech qachon unutilmaydi. Ayniqsa, totalitar tuzum davrida beayb insonlarning begunoh qurbon bo‘lgani xalqimiz xotirasida o‘chmas iz qoldirdi. Qatag‘on qurbonlari hayoti va ularning ibratli jasorati bugungi kunda yosh avlodni Vatanga sadoqat, fidoyilik va sabr-toqatga chorlaydi. Shu ma’noda, urush va mehnat qahramoni Bobomurod Omonovning porloq xotirasi – adolat va ozodlik ramzi sifatida alohida ehtiromga loyiqdir.

Ma’lumki, o‘tgan asrning 1980 yillari xalqimiz uchun nihoyatda og‘ir davr bo‘lgan edi.

Chorak asr O‘zbekistonni boshqarib, agrar respublikadan sanoati rivojlangan, Sobiq ittifoqda yagona sanalgan qator-qator zavod-fabrikalari bor, malakali muhandis kadrlariga ega respublikaga aylantirgan benazir inson Sharof Rashidovning bevaqt o‘limidan so‘ng, O‘zbekistonda qatag‘on qilichini ishga solishga shay bo‘lib turgan markaz tomonidan tuhmat toshlari otila boshlandi. 1983 yili “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi” to‘qimasi ostida mamlakatimizga kirib kelgan “ivanov va gdlyanchilar” siyosiy mafkuraviy harakati o‘zbek xalqining boshiga kelgan musibatlarning eng og‘iri bo‘ldi.

O'sha yillari gdlyanchilar tomonidan sodir etilgan fuqarolarning qonuniy huquqini qasddan poymol qilish, haqoratlash, xo'rlash, jismoniy va ruhiy qiynoqlar oqibatida ba'zilar o'z joniga qasd qilishga majbur bo'ldi.

Bunday fojiali taqdirlar ro'yxatini, afsuski yana uzoq davom ettirish mumkin. Ushbu fojialar tufayli yuzlab o'zbek oilalariga og'ir musibat yetdi. Bu ish bo'yicha ko'plab aybsiz insonlar qamoqqa tashlandi va qiynoqqa solindi. Qanchadan-qancha ilimli-ma'rifatli insonlar, mamlakatni iqtisodiy taraqqiyotini ko'targan yurt fidoiylari, urush va mehnat fahriylari, qo'yingki o'zbekning chin ziyolilari sobiq ittifoq, totalitar tuzum tomonidan qatag'on qilindilar.

Qanchadan-qancha insonlar davr qurboniga aylanib, ko'plab milliy kadrlarimiz to'qib chiqarilgan ayblar bilan uzoq muddatlarga qamoqqa tashlandi. Keng vakolatga ega bo'lgan bu tergov guruhi hibsga olingan ayblanuvchilarga nisbatan tergovning man qilingan usullarini qo'llar, ularni ashaddiy kallakesarlar bilan bir kameraga o'tqazish, otuvga hukm qilish bilan qo'rqitish, xotini, qizi va o'g'illarini, xibsga olish, jismoniy-ruhiy qiynash va hokazolar orqali iqrorlik ko'rgazmasini olish ommaviy tus olgandi. Gdlyanchilar ayblanuvchilarni yuziga tupurib tahqirlar, haqoratlar, g'ururini oyoq osti qilar edi.

Adaabiyotlar tahlili va metodologiya.

1984 yil O'zbekiston uchun yana bir ko'ngilsiz voqea yuz berdi.

Aynan shu yili O'zbekiston Markazqo'mining XVI-plenumi bo'lib o'tdi. Ushbu plenum O'zbekiston Markazqo'mi xodimlari emas, boshdan-oyoq KPSS MK kotibi, siyosiy byuro a'zosi Ye.Ligachev boshchiligida u bilan birga markazdan kelgan xodimlar tomonidan tayyorlangan edi.

O'zbekistonni qora bo'yoqqa bo'yab tashlagan Markazqo'm birinchi kotibining ma'ruzasi ham ular tomonidan yozilgan va birinchi kotibga minbarga chiqib, ma'ruzani faqat o'qib berish vazifasi yuklangan edi, xolos. Ma'ruzada paxta yetishtirish va davlatga topshirishda kadrlar qat'iyatsizlik qilgani, qo'shib yozishlarga yo'l qo'yilgani alohida ta'kidlandi.

Vaholanki, o'sha paytlarda O'zbekiston aholisining 65 foizi faqat paxta yetishtirish bilan shug'ullanar, millionlab odamlar – maktab o'quvchilari, studentlar markazning topshirig'i bilan dekabr, hatto yanvar oylarida ham majburiy paxta terish bilan deyarli tekinga shug'ullanishardi. Yig'ib olingan hosil esa past narxlarda markazga jo'natilardi.

Dunyoda hech bir xalq mana shunday og'ir sharoitda ishlashga majbur qilinmagan. O'n oltinchi plenum materiallarida bu holat mutlaqo tilga olinmadi. Bu esa o'ta adolatsizlik edi.

Shuningdek, ma'ruzada O'zbekiston MK faoliyati qoniqarsiz deb topildi hamda Markazdan O'zbekistonga kadrlar borasida yordam so'raldi va shu haqda tegishli qaror qabul qilindi. Shundan keyin O'zbekistonda minglab mahalliy kadrlar ishdan bo'shatildi. Davlatchiligimiz tarixida beqiyos o'rin tutgan Sharof Rashidovdek ulug' insonning yuziga qora chaplandi. Yana ko'plab milliy kadrlarimiz to'qib chiqarilgan ayblar bilan uzoq muddatlarga qamoqqa tashlandi. Shundan so'ng respublikamizdagi turli rahbarlik lavozimlariga markazdan kadrlar kela boshladi. Barcha viloyatlarda obkomning ikkinchi

kotibi, viloyat prokurorlarining ko'pchilligi, viloyat sudi raislari o'rinbosarlarining barchasi markazdan kelganlardan qo'yildi.

Bir so'z bilan aytganda, ular hukumronlikni to'la qo'lga olib, yurtimizda "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi" degan to'qima bo'yicha qatag'onni avj oldirdilar. Ivanov va Gdlyan uchun bu holat ayni muddao bo'ldi. Endi ular nimani xohlasa shuni bemalol qilveradigan bo'lishdi. Markazqo'mning o'n oltinchi plenumidan keyin O'zbekistonda rahbar bo'lib ishlaganlarni to'qib chiqarilgan ayblovlar bilan qamash ommaviy tus oldi.

Gdlyan va Ivanovning tergov guruhi faqat yuqori lavozimda ishlagan shaxslarga nisbatan tergov olib borgan, ulardan iqrorlik ko'rgazmasini olish uchun yuzlab qarindoshlari, qo'shnilari, hatto tanishlari qamoqqa tashlanib, qiynoqqa solingan. Ushbu tergov guruhi hibsga olingan ayblanuvchilarga nisbatan qonunni g'araz niyatlar bilan olti yil mobaynida beshafqat, surbetlarcha oyoqosti qildilar. Ular qurollangan askarlar bilan harbiy vertolyotlarda olis qishloqlargacha borib, odamlarning bor-budini talab, zo'ravonlik qilishdi. Shu o'rinda ana shunday qatag'on qurbonlaridan birining umr yo'llari va ayanchli taqdiri haqida batafsil to'xtalib o'tmoqchi edim.

II-Jahon urushida fashistlarga qarshi mardonavor kurashgan, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi yirik agrosanoat majmuasi direktori, Mehnat va Urush qahramoni Bobomurod Omonov ham o'sha yillari tergov xibsxonasida to'xtovsiz ruhiy va jismoniy ta'ziyqlardan sog'ligi keskin yomonlashib vafot etadi. Endi qahramonimizning hayot yo'llariga nazar tashlaydigan bo'lsak: Bobomurod Omonov 1917 yil 16 noyabrda Surxondaryo viloyatining Uzun tumanidagi O'mir qishlog'ida oddiy cho'pon oilasida dunyoga keladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, bolaligida otasi bilan Bobotog' va Hisor tog'-yonbag'irlarida mol boqar, kuzda esa qishloqqa qaytar, qamishlardan kulba yasab, bo'yra va po'staklarni to'shak qilib, butun oila sandal atrofida jon saqlashardi. Ona-Vatanga, uning go'zal tabiatiga, o'zbek millatiga, urf-odat va an'analarga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ulari uning sof va beg'ubor bolalik qalbida o'sha davrlardayoq uyg'ongan va butun umrini shu yurt taraqqiyoti uchun bag'ishlashni maqsad qilgan bo'lsa ajabmas. 7 yillik boshlang'ich maktabni bitirgach, u 1936 yili Buxoro shahridagi 6 oylik hisobchilar tayyorlash kursida o'qiydi. 1937 yildan Telpak chinor qishloq sovetida kotib va hisobchi bo'lib ishlay boshlaydi. 1939 yil kolxozda tashkil etilgan paxtachilik zvenosiga bosh kotib etib saylanadi. Ish qizg'in ketayotgan bir paytda 1939 yilning kuzida uni harbiy xizmatga chaqirishadi.

Harbiy xizmati tugashi arafasida (1941-yil) II-Jahon urushi boshlanib qoladi. Bobomurod Omonov ham ko'ngillilardan bo'lib Vatan himoyasi uchun jangga kirishadi. Leningraddan Berlingacha bo'lgan dahshatli front yo'llarini, shafqatsiz jang maydonlarini bosib o'tadi. 1944 yil Leningrad shahrini qamaldan ozod qilish janglarida qatnashib, 2 marta yarador bo'ladi va tuzalib yana jangga qaytadi. Urush yillari 1-Belorus fronti qo'shinlarida jang qilib, Polshani ozod etish janglarida faol ishtirok etadi. Shuningdek, Berlinni ishg'ol qilish janglarida ham oldingi saflarda bo'ladi. Jangovor xizmatlari uchun

“Qizil Yulduz”, “Qizil Bayroq” ordenlari, “Leningrad mudofaasi uchun”, “Berlinni olish uchun”, “Varshavani ozod qilish uchun” va boshqa ko‘plab medallar bilan taqdirlanadi.

(Qishlog‘idan urushga ketgan 29 nafar navqiron yigitlardan atigi 2 tasigina o‘z oilasi bag‘riga omon qaytadi. (O‘sha ikki yigitning biri u edi) Urush tugagach, 1946 yil yozida o‘z tug‘ilgan ona-yurtiga qaytib keladi va uni rayon ijroiya qo‘mitasi bo‘lim mudirligiga ishga tayinlashadi.

Ayni kuchga to‘lgan yigit yoshida yengil ishda ishlashni o‘ziga ep bilmagan B.Omonov kolxozga ishga jo‘natishlarini so‘rab ariza beradi va rahbariyat tomonidan uning arizasi qondirilib, “Chkalov” nomidagi kolxoz boshqaruvi raisligiga yuboriladi. 1947-1948 yillarda u Samarqanddagi kolxoz rahbarlarini tayyorlash kursida tahsil oladi.

O‘qishni tugatgach, 31 yoshida “Chkalov” nomli kolxoz boshqaruvi raisligiga saylanadi. U rahbarlik qilgan vaqtdan boshlab kolxozning iqtisodiy ko‘rsatkichlari birmuncha yuqoriga ko‘tariladi. Ko‘p o‘tmay kolxoz har tomonlama yuksak rivojlangan xo‘jalikka aylanadi.

Qishloq xo‘jalik ekinlari va chorvachilikdan yuqori va sof daromad ola boshlaydi. Yosh, serg‘ayrat, bilimdon va zukko rahbar o‘sha yillari qishloq uchun ikkita maktab, ikkita qishgi va yozgi klub, o‘n ta mavsumiy bolalar bog‘chasi va dala shiyponlari qurdiradi. 1956 yilda uning mehnatlari yuksak baholanib, “Sotsialistik Mehnat Qahramoni” unvoni bilan taqdirlanadi. Keyinchalik O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumining 4 ta faxriy yorlig‘i bilan taqdirlanadi. 1979 yil 18 noyabrda O‘zbekiston Kompartiyasi MK va Ministrlar sovetining qaroriga muvofiq, jamoa xo‘jaliklari sovxozlarga, ya‘ni davlat xo‘jaliklariga aylantiriladi. Bobomurod Omonov 1979 yildan to 1986 yilgacha sobiq “Kommunizm” sovxози direktori lavozimida ishlaydi. Rahbarlik faoliyati davomida o‘zi yashab turgan hududda sovxoz uchun katta bunyodkorlik ishlarini amalga oshiradi.

O‘sha yillari sovxozga “Paxta fabrikasi” degan nom beriladi va sovxoz nomi Moskvadagi Xalq “Xo‘jaligi Yutuqlari” ko‘rgazmasi (VDNX)ning “Hurmat taxtasi”ga yoziladi. 1970 yilda u O‘zbekiston Kommunistik Partiya Markaziy Komiteti a‘zosi etib saylanadi. Yillar o‘tgan sayin xo‘jalik hududida o‘nta maktab, o‘n ikkita bolalar bog‘chasi, 550 ta xo‘jalik uchun uy-joy, 250 o‘rinli kasalxona, madaniyat saroyi, “Mehnat shon-shuxrati” muzeyi, stadion, madaniyat va istirohat bog‘i, chorvachilik komplekslari va boshqa ko‘plab ob‘ektlar qad rostlaydi. Uning tashabbusi bilan tuman markazidan 70 km. uzoqlikdagi tog‘lar orasida joylashgan “Xonjiza” sovxoziga asfalt yo‘l yotqiziladi. Tuman markazidan 90 km.

Uzoqlikdagi “Bobotog” sovxoziga ham asfalt yo‘l yotqizilib, sovxoz mehnatkashlariga qulaylik yaratiladi. Xo‘jalik ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan har tomonlama rivojlanganligi tufayli u “Oktabr revolyusiyasi” ordeni hamda 11 marta Ittifoqning nufuzli ko‘chma bayrog‘i bilan taqdirlanadi. Bobomurod Omonovning mehnatlari davlatimiz tomonidan ham munosib taqdirlangan. Qahramonimiz umri davomida jamiyat hayotida faol ishtirok etib, 8-chi chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy majlisi deputatligiga, KPSS XXIII-XXIV-XXV sezdi, kongresslariga, O‘zbekiston Kompartiyasining XVI, XVII, XVIII yig‘inlariga delegat etib saylanadi. Yuksak xizmatlari uchun “O‘zbekistonda

xizmat ko'rsatgan paxtakor" faxrli unvoniga sazovor bo'ladi. O'z davrida davlatning yuksak mukofotlari, "Lenin ordeni", "Mehnat Qizil Bayroq" ordeni, "Hurmat belgisi" ordeni, "Xalqlar do'stligi" ordeni va ko'plab medallar bilan taqdirlangan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Bobomurod Omonov 1986 yil "Paxta ishi" bilan qamoqqa olinadi. Qamoqda ayni keksalik yoshida juda og'ir kunlarni boshidan kechiradi. Lekin tuhmat va buhtonlar asosida ochilgan jinoyat ishi sudda o'z tasdig'ini topmaydi. Oqlov hukmini chiqarishga jur'ati yetmagan sudya ishda yana tanaffus e'lon qiladi. Natijada butun hayotini qishloq xo'jaligi, dehqonchilik sohasiga baxshida qilgan va el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan hamda o'z davrining faxri, iftixori va qahramoni darajasiga ko'tarilgan fidoiy inson 1987 yil 23 oktabr kuni turmada vafot etadi. Vafotidan keyin ishi qayta ko'rilib, B.Omonovning nomi butunlay oqlanib, u rahbarlik qilgan sovxozga uning nomi beriladi. Yoshligi, ayni navqiron yoshi hamda keksalikkacha bo'lgan davrini mehnatda, izlanishda, harakatda o'tkazgan hamda jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligi yo'lida xizmat qilishga bag'ishlagan bu ajoyib inson umrining so'nggi qismini el-yurt ardog'ida, e'tiboru-e'tirofda o'tkazishi lozim edi. Afsuski, tarixga aylangan o'sha davr va totalitar tuzum Sharqning B.Omonovga o'xshagan alp o'g'lonlari umriga zavol bo'ldi. Ularning birgina aybi-o'sha davrda tug'ilib, o'sha davr mafkurasida yashab, yurtiga va xalqiga xiyonat qilmasdan halol ishlaganligida. Agar shular ayb sanalsa...

Har yili may oyida ota yurtga borganimda, o'tganlarni qabrlarini ziyorat qilgani ajdodlarimiz hoki yotgan qabristonga boraman. Yo'l-yo'lakay Bobomurod otani qabrlarini ham ziyorat qilaman va bu buyuk insonga xayolan hurmat bajo keltiraman. Qabr tepasida o'tirarkanman, xayollarim meni uzoq bolalik sari yetakladi. Maktabda o'qib yurgan kezlarim paxta mavsumida bizni butun sinfimiz bilan paxta dalasiga haydashardi. Qahraton qishda ham qo'limizda o'qlov bilan g'o'zapoya shoxlaridagi qorlarni qoqib paxta terardik.

Qo'llarimiz sovvuqdan qizarib, yorilib ketardi. Bobomurod otani o'shanda birinchi marta paxta dalasida ko'rganman. Bo'ylari pastroq, qora kostyum-shim ustidan palto va andatra telpak kiyib olgan, eski rusumdagi xizmat mashinasida paxta dalalariga kelardilar. U kishiga ilk duch kelgan paytlarim kechagidek esimda. Dala chetidagi ikki tomoniga tut daraxti ekilgan ariq yaqinidagi egat oralab paxta terardim, shunda yo'l boshidagi torgina yo'lakchaga mashina kelib to'xtadi. Rais buva mashinadan tushib to'ppa-to'g'ri shu tomon kelardi.

Men esa u kishini kimliginiyam bilmasdim o'shanda. Salomimga alik olib, "Isming nima? sovuq qotdingmi?" degandi o'shanda sovuqdan qizargan qo'llarimga qarab. Jiddiy qiyofalari tagida yashiringan mayin tabassumlari va otalarcha mehribon nigohlari hali-hanuz esimda. Birdan hamma yugurgilab qolganini ko'rib shoshib qoldim. Kechki payt uyga qaytganimizda dadam menga u kishi haqida gapirib berdilar. (izoh: dadam o'qituvchi bo'lganliklari uchun topshiriqqa ko'ra har yili 2-3 ta hamkasblari bilan maktab bolalarini paxtaga olib chiqishardi) Rais hech kimga xabar bermasdan, dab-durusdan paxta dalalariga borib qolar, indamay kirib egat oralab paxtalarni tekshirar, odamlarni kuzatar ekan. 1985 yilning may-iyun oylari edi.

Endigina maktabni bitirib, Toshkentga o'qishga ketaman deb turganimda dadam yotqli kasal bo'lib qoldilar. O'sha yili tengdoshlarimdan ajralib, o'qishga borolmay qoldim. Onam bolaligimda olamdan o'tgan, kasal otamga esa qaraydigan odam yo'q edi. O'qishni keyingi yilga qoldirib, ish qidirib yurgan kezlrimda, meni da'fatan "Rayispolkom"ga ishga olishdi. Raykom va Rayispolkom idoralari yonma-yon edi.

O'shanda men bu buyuk insonni "Raykom", "Rayispolkom" idoralarida bot-bot ko'radigan bo'ldim. Raykom, rayispolkom yoki raykom komsomol xodimlariga "dafn marosim"lariga do'ppida ishtirok etish va qur'on tilovat qilish qat'iyan man etilgan o'sha kezlari men Bobomurod otani har doim boshida do'ppisi bilan ma'raka-yu, majlislarda ko'rardim. Rais millatga, urf-odat va an'analarga, qo'yingki o'zbek degan nomga doimo hurmat bilan qarar va "Boshda do'ppi-g'oz o'zbekim" qabilida o'zining o'zbekligidan faxrlanishini manashu do'ppisi orqali ifoda etardi.

O'sha kuni qabristondan uyga qaytgach, charchoqdan biroz ko'zim ilinibdi.

Tushimda Bobomurod otani ko'rdim. Boyagina ziyorat qilgani borganimda qora marmarga o'yilgan, boshda do'ppi, qora kostyum va galstukdagi o'zbek ziyolisi qarshimda turardi. U kishiga nimalarnidir gapirar va yana nimalarnidir so'radim. Menga xotirjam jilmaygancha "Uy muzeyimga boring" dedilar. Shu topda kimningdir shovqinidan uyg'onib ketdim. Ertasi kuni Toshkentga qaytishimiz kerak edi, lekin ketolmadim.

Urush va Mehnat faxriysining "Uy muzeyimga boring" degan so'zlari qulog'im ostidan sira nari ketmadi. Ertalab o'rnimdan turdim-da nonushtadan so'ng, kiyinib bekatga chiqdim. Taksi to'xtatib, B.Omonov yashagan qishloqqa qarab yo'l oldim. Otaning to'ng'ich farzandi Sultonmurod Omonov va qizlari O'g'iloy Omonovani uylarini qidirib topmoqchi bo'ldim. (izoh: Bobomurod ota qamoqqa olinib izolyatorda saqlanayotgan bir paytda, mas'ul lavozimda ishlayotgan o'g'li Sultonmurod Omonovning joniga suiqasd qilishadi, lekin Olloh asrab u omon qoladi, o'lim uni chetlab o'tadi. Ertasi kuni "Rayispolkom"da shov-shuv ko'tarilib ketganini guvohi bo'lganman. O'shanda men kadrlar bo'limida ish yurituvchi vazifasida ishlardim. Sultonmurod akani surishtirmoqchi bo'lganimda, vafot etganini aytishdi. O'g'iloy opa esa ancha yil oldin Toshkentga ko'chib ketgan ekanlar.

Toshkentga qaytganimda O'g'iloy Omonova bilan uchrashib suhbat qurishni dilimga tugib qo'ydim. So'rab-surishtirib ilgarigi Chkalov nomli jamoa xo'jaligiga B.Omonov yashagan uyga bordim. Hozir u uyda otaning kichik o'g'li Olimjon Omonov yashar ekanlar.

Bobomurod ota yashagan uy ostonasidan kirib borar ekanman, shinamgina hovlida ekilgan gulu-rayhonlarni, mevali daraxtlarni, endigina sug'orilgan ekinlarni ko'rib, otaning yengilgina ruhlarini his qilgandek bo'ldim go'yo. Kim bor deya, ostonadan ichkariga yura boshladim.

Qarshimdan milliy liboslarda ko'rkamgina ayol chiqdi, "xush kelibsiz" deya nim tabassum bilan meni qarshi oldi va uy tomon boshladi. Yo'l-yo'lakay o'zimni tanishtirdim. Gulnora opa Bobomurod otaning kelinlari ekan. Hovlida kenja o'g'illari Olimjon Omonovni ham uchratdim.

Ular bilan biroz suhbatlashdik. Ertaga Toshkentga qaytishim kerakligini, vaqtim chegaralanganligini aytib, maqsadga ko'chdim. Gulnora opa meni ichkariga boshladilar. Uy

to'rida otaning qora kostyumdagi, boshida do'ppisi bilan tushgan ramkaga solingan kattagina portreti eshik ro'parasidagi kresloga suyak qo'yilgan ekan.

Allanechuk bo'lib ketdim va portretga tikilgancha xayolga toldim. Gulnora opaning "o'tiring, marhamat" degan ovozidan hushyor tortdim. Men Bobomurod ota bilan bog'liq yana ko'proq ma'lumotlarga ega bo'ldim.

B.Omonov tashabbusi bilan tashkil etilgan Sobiq "Kommunizm" sovxosi markazida joylashgan "Shon-Shuhrat" muzeyi ba'zi-bir sabablarga ko'ra faoliyati tugatilgan va muzeydagi otaning xotirasi bilan bog'liq ba'zi bir manbalar (albomlar, unvonlar, medallar, kitoblar va ayniqsa Sharof Rashidovdek buyuk insoning imzosi qo'yilgan "fikr-mulohazalar" (kniga-otzyv) kitobi ushbu uyda saqlanar ekan.

Beixtiyor ko'zimga yosh keldi, "Uy-muzeyimga boring" deb bekorga aytmaganliklarini endi anglagandek bo'ldim. O'z yurtiga, xalqiga, millatiga va madaniyatiga sodiq bo'lgan shunday ajoyib inson bizning vatandoshimiz edi.

Toshkentga qaytgach, jamiyatimiz hayotida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan, ilmfan va madaniyatimizga munosib hissa qo'shib kelayotgan, ayni damlarda ham martabali lavozimlardan birida faoliyat ko'rsatayotgan ustozimni uylariga bordim. U kishi bilan fikrlarimni o'rtoqlashmoqchi va o'z yurti, xalqi va madaniyati rivoji uchun butun umrini bag'ishlagan B.Omonov nomi bilan bog'liq tuzukroq bir muzey tashkil etish kerakmikin degan fikrimni aytmoqchi bo'ldim. Afsuski, ustozim xizmat safarida ekanlar. Fursatini topib, yana bu taklif bilan ustozimga murojaat qilishni dilimga tugib qo'ydim.

Xulosa.

Qatag'on qurbonlari xotirasi — adolat va ozodlik ramzi. Bobomurod Omonovning hayoti va uning qatag'ondagi taqdiri milliy xotira va adolat talabi ramzi bo'lib xizmat qiladi, bu xotira jamiyatni birlashtiruvchi hamda tarixiy adolatni tiklashga undovchi kuchdir.

Qatag'on qurbonlarini eslab o'tish, hujjatlarni to'plash va yodgorliklar yaratish orqali jamiyat tarixiy xatolardan saboq olib, kelajakni barqaror va adolatli qurishga intiladi.

Bobomurod Omonov kabi qahramonlar hayoti haqida o'quv materiallari va yodgorlik tadbirlarini joriy etish, Komparativ tadqiqotlar orqali xalqaro tajribalarni o'rganish va mahalliy siyosatga moslashtirish lozim.

Qatag'onning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini chuqurroq, longitudinal tadqiqotlar orqali o'rganish.

Xotira siyosatining iqtisodiy va madaniy ta'sirini tahlil qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qurbongul Egamberdieva, O'g'iloy Omonova. "Chinorga aylangan umr" Toshkent.1972 yil.
2. X.Xoliyorov, D.D.Bichkov, A.I.Blinnikov "Surxondaryo" Toshkent. 1974 yil.
3. <https://UZA/UZ>> "Paxta ishi qanday yuzaga kelgan edi?"
4. Bobomurod Omonovning farzandi Olimjon Omonov va kelini Gulnora Omonova bilan bo'lgan yuzma-yuz suhbatlarim.